



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH  
AKADEMIYASI**

# "Huquqbuzarlik"

Umumiy o'rta ta'lim maktab 8-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan dars materiallari

# Huquqbuzarlik nima?

**Huquqbuzarlik** — bu insonning amaldagi qonun-qoidalarga zid ravishda qilgan **harakati yoki harakatsizligi**dir. Ya'ni inson qonun talablarini buzsa yoki o'z zimmasidagi majburiyatlarni bajarmasa, bu huquqbuzarlik deb ataladi.

## Harakat shaklida

Qonun taqiqlagan narsani qilish. Masalan, o'g'irlik qilish, mulkni buzish yoki boshqalarga zarar yetkazish.

## Harakatsizlik shaklida

Qonun buyurgan narsani bajarmaslik. Masalan, majburiy ta'limdan bo'yin tovlash yoki soliq to'lamaslik.



Huquqbuzarlik jamiyatdagi tartibni buzadi va boshqa insonlarning huquq hamda manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli har qanday huquqbuzarlik qonun tomonidan **taqiqlangan** va u uchun **javobgarlik belgilangan**.



# Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar

**Korrupsiyaviy huquqbuzarlik** — bu mansab yoki xizmat vakolatlaridan **shaxsiy manfaat uchun foydalanish** bilan bog'liq noqonuniy harakatlardir. Bu huquqbuzarlikning alohida xavfli turi bo'lib, u jamiyatda adolatni to'liq buzadi va odamlar o'rtasidagi ishonchni kamaytiradi.



## **Pora berish yoki olish**

Biror qaror yoki xizmat evaziga noqonuniy ravishda pul yoki boshqa qimmatliklar talab qilish yoki taqdim etish. Bu korrupsiyaning eng keng tarqalgan ko'rinishi hisoblanadi.



## **Vakolatdan shaxsiy foyda olish**

Xizmat lavozimida berilgan vakoatlarni o'z shaxsiy manfaatlari uchun ishlatish. Masalan, davlat resurslarini shaxsiy maqsadlarda foydalanish.



## **Adolatsiz qaror qabul qilish**

Tanish-bilishchilik yoki manfaat evaziga adolatni buzgan holda qaror qabul qilish. Bu teng huquqlilik va adolat prinsipini oyoq osti qiladi.



Korrupsiyaga qarshi kurashish — har bir fuqaroning muhim **fuqarolik burchidir**. Korrupsiya jamiyat rivojiga jiddiy to'siq bo'ladi va kelajak avlodning huquqlarini cheklaydi.

# Huquqbuzarlikning belgilari

Huquqbuzarlikni boshqa oddiy xatti-harakatlardan ajratib turadigan **to'rtta muhim belgi** mavjud. Bu belgilarning barchasi birgalikda mavjud bo'lsagina, qilmish huquqbuzarlik deb hisoblanadi.



## Ijtimoiy xavflilik

1

Qilmishning jamiyat, davlat yoki shaxs manfaatlariga zarar yetkazishi yoki zarar yetkazish xavfini tug'dirishi. Bu huquqbuzarlikning asosiy moddiy belgisidir.

## Huquqqa zidlik

2

Qilmishning amaldagi qonun hujjatlarida taqiqlangan bo'lishi yoki belgilangan majburiyatlarga xilof ravishda sodir etilishi. Qonunda taqiqlanmagan harakat huquqbuzarlik hisoblanmaydi.

## Ayblilik

3

Shaxsning o'z qilmishiga nisbatan ruhiy munosabati bo'lib, u **qasd** (ataylab) yoki **ehtiyotsizlik** shaklida namoyon bo'ladi. Bu javobgarlikning zarur shartidir.

## Jazo muqarrarligi

4

Sodir etilgan har qanday huquqbuzarlik uchun vakolatli organlar tomonidan albatta qonunda nazarda tutilgan javobgarlik choralarining qo'llanishi muqarrar ekanligini anglatadi.

# Huquqbuzarlik turlari

Huquqbuzarliklar ularning **og'irligi** va **jamiyatga yetkazadigan zarariga** qarab turli turlarga bo'linadi. Eng yengil turidan eng og'irigacha bo'lgan bu tasnif huquq tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

## Intizomiy huquqbuzarlik

Mehnat, xizmat yoki o'quv intizomini buzish. Eng yengil tur — intizomiy jazo (ogohlantiris, hayfsan) bilan cheklanadi.

## Ma'muriy huquqbuzarlik

Davlat boshqaruvi, jamoat tartibini buzish. Jarima yoki boshqa ma'muriy jazo bilan javob beriladi.

## Fuqarolik-huquqiy huquqbuzarlik

Mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarni buzish. Yetkazilgan zararni qoplash majburiyati yuzaga keladi.

## Jinoyat

Eng og'ir tur — jinoiy jazo (ozodlikdan mahrum qilish va boshqalar) bilan jazolanadi. Jinoyat kodeksida belgilangan.



# Intizomiy huquqbuzarlik

**Intizomiy huquqbuzarlik** — bu xodim, xizmatni o'tayotgan shaxs yoki o'quvchi tomonidan mehnat, xizmat yoki o'quv intizomi qoidalarining **aybli ravishda buzilishi**dir. Bu tur huquqbuzarlik umumiy huquq-tartibotga emas, avvalo muayyan tashkilot yoki muassasa doirasidagi tartibni buzadi.

## Majburiy yuridik belgilari:

- Ichki yoki xizmat tartibiga zidlik
- Ayblilik mavjudligi
- Xizmat yoki mehnat majburiyatining buzilishi
- Intizomiy javobgarlikni keltirib chiqarishi

## Maktabdagi misollar:

- Darslarga kech kelish yoki sababsiz qolish
- O'qituvchi ko'rsatmalariga bo'ysunmaslik
- Uy vazifalarini bajarmaslik
- Maktab mulkini noto'g'ri ishlatish

## Qo'llaniladigan jazolar:

- Ogohlantirish
- Hayfsan e'lon qilish
- Ota-onani chaqirish
- Maktabdan vaqtincha chetlashtirish



Intizomiy huquqbuzarlik — bu huquqbuzarlikning **eng yengil** turi bo'lsa-da, u ham o'z oqibatlarini keltirib chiqaradi. Har bir intizomiy buzilish o'quvchining kelajak obro'-e'tiboriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

# Ma'muriy huquqbuzarlik

**Ma'muriy huquqbuzarlik** — bu qonun hujjatlarida ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan, jamoat tartibi, boshqaruv tartibi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, mulk, atrof-muhit hamda sanitariya xavfsizligiga tajovuz qiluvchi, aybli va g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlikdir.

## Jamoat tartibini buzish

Jamoat joylarida bezorilik, baland ovozda shovqin ko'tarish, atrofdagilarga xalaqit berish.

## Yo'l harakati qoidalarini buzish

Qizil chiroqda o'tish, yo'l belgilariga rioya qilmaslik, piyodalar o'tish joyini buzish.

## Sanitariya qoidalarini buzish

Ruxsatsiz joylarda axlat tashlash, sanitariya me'yorlariga rioya qilmaslik.

## Atrof-muhitni ifloslantirish

Tabiatga zarar yetkazish, ruxsatsiz yong'in yoqish, suv manbalarini ifloslantirish.

Ma'muriy huquqbuzarlikning huquqiy xususiyati shundaki, u davlat tomonidan belgilangan majburiy qoidalarning buzilishi sifatida namoyon bo'ladi, biroq **ijtimoiy xavflilik darajasi jihatidan jinoyat darajasiga yetmaydi**. Faqat qonun hujjatlarida ma'muriy huquqbuzarlik sifatida belgilangan qilmishgina ma'muriy javobgarlik uchun asos bo'la oladi.



Ma'muriy jazo choralari: **jarima to'lash**, ma'lum huquqdan mahrum qilish yoki boshqa ma'muriy ta'sir choralari qo'llash.

# Fuqarolik-huquqiy huquqbuzarlik

Bu mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy munosabatlar sohasida subyektiv huquqning buzilishi, majburiyatning bajarilmasligi yoki boshqa shaxsga zarar yetkazilishi bilan ifodalanadigan qilmishdir.

## Asosiy belgilari:

- Huquqning buzilganligi
- Qilmishning g'ayrihuquqiyligi
- Zarar yoki noxush huquqiy oqibat mavjudligi
- Ayblilik va sababiy bog'lanish

**Oqibati:** Buzilgan huquqni tiklash, yetkazilgan zararni qoplash, majburiyatni ijro ettirish.



Misol: Birovning mashinasini shikastlash va zarar qoplamay ketish — fuqarolik javobgarligi yuzaga keladi.

# Jinoiy huquqbuzarlik

Jinoyat — jinoyat to'g'risidagi qonunda taqiqlangan, **ijtimoiy xavfli**, aybli va huquqqa xilof qilmish bo'lib, u harakat yoki harakatsizlik shaklida sodir etiladi.

## Jinoyat tushunchasi ikki jihatni o'z ichiga oladi:

- **Formal jihat** — jinoyat kodeksida mustahkamlangan
- **Moddiy jihat** — ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori


## Majburiy belgilari:

- Qonunda nazarda tutilganligi
- Ijtimoiy xavfliligi
- Aybning mavjudligi
- Jinoiy-huquqiy oqibat belgilanganligi

**Eslatma:** Har qanday huquqqa zid qilmish jinoyat emas — faqat jinoyat qonunida belgilangani jinoyat hisoblanadi.



**Vaziyat:** Maktabda "Yilning eng faol o'quvchisi" tanlovi o'tkazilmoqda. Komissiya a'zosi Sardorga yaqin do'sti Jahongir murojaat qildi: *"Menga g'oliblikni bersang, keyin senga ham yordam beraman."* Sardor bilib turibdiki, boshqa o'quvchi — Zuhra ancha yuqori natijalarga ega. Ammo Sardor qaror qabul qilish imkoniyatiga ega.



**Vaziyat tahlili**   **Huquqbuzarlik**   **Xulosa**

## Maktabdagi korrupsiya

### Korrupsiya belgilari

- Vakolat mavjud (komissiya a'zosi)
- Shaxsiy manfaat taklif qilinmoqda
- Adolatli qarorga ta'sir o'tkazish ehtimoli bor

### Huquqbuzarlik oqibatlari

- Tenglik prinsipini buzadi
- Zuhrani adolatsiz mag'lubiyatga uchratadi
- Tanish-bilishchilik — korrupsiyaviy xulq-atvor

### To'g'ri yo'l

- Natijalarni faqat ko'rsatkichlarga qarab belgilash
- Taklifni rad etish va xabar berish
- Adolatli qaror qabul qilish

# AMALIY MISOLLAR

**Vaziyat:** 8-"B" sinf. 3 nafar o'quvchi — Bekzod, Ilhom va Sardor maktab omboridan sport to'plarini **ruxsatsiz olib chiqib**, uyida saqlab qo'yishdi. Oradan 2 hafta o'tdi, to'plar qaytarilmadi va maktab musobaqasi bekor bo'ldi.

## **Ijtimoiy xavflilik**

Butun sinf musobaqadan mahrum bo'ldi. Jamoat manfaatiga zarar yetkazildi.

## **Huquqqa zidlik**

Maktab mulkini ruxsatsiz olish qonunga va maktab qoidalariga ziddir.

## **Aybdorlik**


Harakat ataylab, ongli ravishda qilingan. Oqibatlar oldindan taxmin qilinishi mumkin edi.

## **Jazoga loyqlik**

Intizomiy chora qo'llanilishi mumkin. Mulknı qaytarish majburiyati ham yuzaga keladi.



Atrofdagi o'quvchilarning sukut saqlashi ham mas'uliyatsizlik hisoblanadi. **Huquqbuzarlik haqida xabar berish** — bu o'g'irlik qilish emas, balki jamiyatni himoya qilishdir.



## AMALIY MISOLLAR

### 3-misol: Ayblilik — Kamronning harakati

**Vaziyat:** 8-"V" sinf o'quvchisi Kamron kompyuter sinfida ishlab turib, **taqiqlangan o'yinni o'rnatdi**. U buning taqiqlanganini bilar edi. Bir necha kundan keyin virus tarqaldi va 10 ta kompyuter ishdan chiqdi.

#### Tahlil:

- Harakat **qasddan** qilingan
- Oqibatlar oldindan taxmin qilinishi mumkin edi
- Sezilarli **moddiy zarar** yetkazildi
- Dastlab tan olmaslik — javobgarlikni oshiradi

⊗ Aybdorlik — inson o'z harakatining noto'g'riligini bilib turib qilganida yuzaga keladi. Bu holda Kamron jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

## 4-misol: Ma'muriy huquqbuzarlik — Bog'dagi shovqin

**Vaziyat:** Markaziy bog'. 8-sinf o'quvchilari kechqurun **baland ovozda musiqa qo'yib**, atrofdagilarga xalaqit berdi. Ogohlantirishga qaramay, buni davom ettirishdi. Bog'da keksalar va kichik bolalar ham sayr qilishayotgan edi.

**Bu holat nima uchun huquqbuzarlik?**

- Jamoat tartibini buzish
- Boshqalarning **dam olish huquqini** cheklash
- Ogohlantirish berilganiga qaramay davom etish
- "Boshqalarga zarar yo'q" degan fikr noto'g'ri

**Xulosa:** Ma'muriy huquqbuzarlik — jamiyat tartibiga ta'sir qiluvchi harakatdir. Jamoat joylarida qoidalarga rioya qilish har bir fuqaroning burchidir.

## 5-misol: Fuqarolik-huquqiy huquqbuzarlik

**Vaziyat:** Aziz velosiped minib yurib, qo'shnisining avtomashinasiga urib, **yon oynasini sindirdi**. Do'sti "hech kim ko'rmadi, ketaver" deb maslahat berdi.

- Mulkka zarar yetkazildi
- Fuqarolik javobgarligi yuzaga keldi
- Yashirish — yangi huquqbuzarlikka olib kelishi mumkin



To'g'ri yo'l: Zararni tan olish, kechirim so'rash va yetkazilgan zararni **qoplash**. Mas'uliyatni qabul qilish — insoniylik belgisidir.

## 6-misol: O'zlashtirish — Jinoiy korrupsiya

**Vaziyat:** Sinf xonasini ta'mirlash uchun ota-onalar pul yig'di. Mablag'larni saqlash mas'ul shaxsga topshirildi. Biroq ta'mirlash to'liq bajarilmadi — mas'ul shaxs **mablag'ning bir qismini shaxsiy ehtiyojlariga** ishlatgani aniqlanadi.

- Ishonib topshirilgan pul o'zlashtirildi
- Ishonchga xiyonat qilindi
- Bolalar sharoitdan mahrum bo'ldi
- Bu — korrupsiyaning to'g'ridan-to'g'ri ko'rinishi



O'zlashtirish — ishonib topshirilgan mol-mulkni noqonuniy ravishda o'z foydasiga ishlatishdir. Bunday harakat qonun bilan qat'iyan **taqiqlangan** va jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

## KEYS-SAVOLLAR

**Vaziyat:** Sport maktabiga yangi o'quvchilarni qabul qilish boshlandi. Rasmiy e'longa ko'ra, qabul faqat **sinov natijalari asosida** amalga oshirilishi kerak edi. Sinovda yaxshi natija ko'rsatgan Javohir qabul qilinishiga ishonadi. Biroq keyinchalik ma'lum bo'ldiki, ayrim o'quvchilar ota-onasi orqali mas'ul shaxslarga **pul berib**, sinovdan o'tmagan bo'lsa ham ro'yxatga kiritilgan.

- 1 Bu vaziyatda qanday huquqbuzarlik sodir etilgan?
- 2 Javohirning huquqi qanday cheklangan?
- 3 "Shunaqa bo'ladi" degan fikr nechog'li xavfli?
- 4 To'g'ri va qonuniy yo'l qanday bo'lishi kerak edi?

## YAKUNIY XULOSALAR

Bugungi darsda biz huquqbuzarlik haqida juda ko'p muhim bilimlarni o'zgandik. Keling, asosiy xulosalarni birgalikda takrorlaymiz.

### Huquqbuzarlik nima?

Qonun-qoidalarga zid harakat yoki harakatsizlik. Jamiyat tartibini buzadi va javobgarlikni keltirib chiqaradi.

### 4 ta asosiy belgi

Ijtimoiy xavflilik, huquqqa zidlik, ayblilik, jazo muqarrarligi — bularning barchasi mavjud bo'lsa, huquqbuzarlik sodir etilgan.

### 4 ta tur

Intizomiy → Ma'muriy → Fuqarolik-huquqiy → Jinoyat. Har bir tur o'ziga xos javobgarlikni keltirib chiqaradi.

### Korrupsiyaga qarshi kurash

Korrupsiya — jamiyatga eng katta zarar yetkazuvchi huquqbuzarlik. Har bir fuqaroga qarshi turishi zarur.

Yoshligidan qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalangan o'quvchilar kelajakda **mas'uliyatli va halol fuqarolar** bo'lib yetishadilar. Huquqni bilish — o'zingni va boshqalarni himoya qilishdir!

- ☑ Esda saqlang: Har qanday huquqbuzarlikdan **oldinroq to'xtash** — bu kuch va aqloqning belgisidir. Qonunga hurmat — jamiyat taraqqiyotining poydevoridir.